



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II-QISM



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukirimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIMLARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR.....	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY.....	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUV HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
KICHIK BIZNES SOHASIGA INVESTITSIYALARNI JALB ETISHNING XORIJIY TAJRIBASI	139
Bolliyev Shamsiddin Tursunmamatovich	
O'QUV MARKAZLARI MISOLIDA ZAMONAVIY VA AN'ANAVIY MARKETINGNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI	143
Dilshodjon Khikmatov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО ФАКТОРА В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ГОСУДАРСТВЕННЫХ ФИНАНСОВ ЧЕРЕЗ ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ ГРАМОТНОСТИ НАСЕЛЕНИЯ	151
Тожионов Жавохир Алимджанович	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	157
Dadaboyeva Marg'uba Mamasoliyevna	
HUDUDIY SANOAT RIVOJI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING INSTITUTSIONAL VA IQTISODIY VOSITALARI HAMDA KORXONA MEKANIZMINI BAHOLASH USLUBIYOTI	164
Yusupova Nigina Djurayevna	
O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINING DAVLAT BUDJETI DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHDAGI FISKAL AHAMIYATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	169
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
АНАЛИЗ ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА УЧАСТИЯ БАНКОВ В ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТАХ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В НАЦИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ УЗБЕКИСТАНА	178
Юлдашева Шохсанам Дилмуродовна	
ИННОВАЦИОННЫЕ ТЕХНОЛОГИИ УПРАВЛЕНИЯ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ЛОГИСТИКЕ (SMART LOGISTICS)	182
Мурадов Бахром Акрамжанович	
Машарипов Масуд Нуможонович	
ЭКОЛОГИЧЕСКИЕ СТАНДАРТЫ КАК ДРАЙВЕР ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ТРАНСФЕРА: ВЛИЯНИЕ НА ЭКСПОРТНУЮ ПОЛИТИКУ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН	187
Тураева Сурия Тельмановна	
Мерзайтова Хилола Наби кизи	
TURIZM SALONIYATINI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI RAQAMLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	198
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	



TIJORAT BANKLARIDA RISKKA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDITNI TASHKIL ETISHNING XALQARO STANDARTLAR BILAN INTEGRATSIYALASHGAN ALGORITMI	203
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLIYAVIY INVESTITSIYALARNING QADRSIZLANISHINI KUTILAYOTGAN KREDIT ZARARLARI (ECL) MODEL ASOSIDA HISOBGA OLISH METODIKASI	210
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHIDAN KO'RILGAN ZARARLARNI TAN OLISH, TAQSIMLASH VA QAYTA TIKLASH OPERATSIYALARINING HISOB TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH	216
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISHNING OPTIMAL MODEL VA FAOLIYATI SIFATINI BAHOLASH TIZIMI	222
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	
DAVLAT MOLIYAVIY NAZORATIDA «XAVF TAHLILI» TUSHUNCHASINING IQTISODIY MOHIYATI VA XAVFLARNI KOMPLEKS TASNIFLASH.....	229
G'ayimov Abdumalik Norbekovich	
DAVLAT XARIDLARI AUDITIDA MUHIMLIKNI (MATERIALLIKNI) ANIQLASH USLUBI.....	235
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIDA MUHIMLIK VA RISK DARAJALARINI ANIQLASH JARAYONLARINI RAQAMLASHTIRISH: BIG DATA VA MASHINAVIY O'RGANISHGA ASOSLANGAN IT-AUDIT PLATFORMASI KONSEPSIYASI.....	241
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
ICHKI AUDITNING GLOBAL STANDARTLARI TALABLARINI TIJORAT BANKLARI AMALIYOTIGA JORIY ETISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	249
Ismailov Azizbek Madaminovich	
AHOLI REAL DAROMADLARINI OSHIRISHNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI.....	258
Toshtemirov Shohruh Toshpo'latovich	
SUG'URTA TASHKILOTLARIDA SUG'URTA ISHINI YURITISH XARAJATLARI: TAHLIL VA ANALITIK HISOBNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	265
Murodov Habibullo Qodir o'g'li	
NUKUS SHAHRI MISOLIDA MAHALLALARNING DEMOGRAFIK SIG'IMI ASOSIDA LOKAL XIZMAT KO'RSATISH OBYEKTLARINI NORMATIV LOYIHALASHTIRISHNING IQTISODIY ASOSLARI.....	273
Bauetdinov Berdaq Zinatdin o'g'li	
OLIIY TA'LIM MUASSASALARINING INSTITUTSIONAL MUSTAQILLIGI VA TASHKILIIY SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	278
Berdiyev Sunnatullo Alikulovich	
IQTISODIY O'SISH VA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL FISKAL SIYOSATNI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI	283
Madaminova Maftuna Baxtiyor qizi	
DAVLAT BUDJETIDA SOLIQ TUSHUMLARI O'ZGARISHINING EKONOMETRIK TADQIQOTI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	288
Suvanova Muxlisa Umar qizi	
ENERGETIKA RESURLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHNING IQTISODIY-MATEMATIK MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH	292
Masharipov Aziz Axmadjanovich	
ENERGETIKA INFRATUZILMASI RIVOJLANISHINING HUDUD IQTISODIY O'SISHIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH.....	297
Sadullayev Axmadjon Ikrom o'g'li	



TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRINI BOJXONA NAZORATI MAQSADLARIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI VA ULARNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	303
Kilichov Nazar Bafojevich	
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	310
Botirov Lazizbek Botirovich	
KATTA MA'LUMOTLAR ASOSIDA TURISTIK XIZMATLARGA BO'LGAN TALABNI PROGNOZLASHNING IQTISODIY-MATEMATIK MODELINI ISHLAB CHIQISH	314
Temirov Elyor Iskandarovich	
TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI SAMARADORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI.....	322
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	



TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT BAZASI SAMARADORLIGINING IQTISODIY MOHIYATI

Marpatov Shavkat Mavlonxonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklari depozit bazasi samaradorligining iqtisodiy mohiyati, uning bank faoliyati barqarorligini ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Depozit bazasining tarkibi, barqarorligi, qiymati, muddati va diversifikatsiya darajasi bank resurs salohiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy omillar sifatida tadqiq etilgan. Shuningdek, depozit mablag'larini jalb qilish va ulardan samarali foydalanish orqali bankning kreditlash imkoniyatlarini kengaytirish, likvidlilik darajasini mustahkamlash, foiz xarajatlarini optimallashtirish hamda moliyaviy natijalarni yaxshilash masalalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: tijorat banki, depozit bazasi, bank resurslari, depozit siyosati, depozit operatsiyalari, resurs samaradorligi, barqaror depozitlar, bank likvidliligi, kredit-depozit nisbati, foiz xarajatlari, moliyaviy barqarorlik, resurslar diversifikatsiyasi.

Abstract. This article examines the economic essence of the efficiency of the deposit base of commercial banks, as well as its role and significance in ensuring the stability of banking activities. The structure, stability, cost, maturity, and level of diversification of the deposit base are studied as the main factors affecting the resource potential of banks. The article also analyzes issues related to expanding banks' lending capacity, strengthening liquidity, optimizing interest expenses, and improving financial performance through the attraction and efficient use of deposit funds.

Keywords: commercial bank, deposit base, bank resources, deposit policy, deposit operations, resource efficiency, stable deposits, bank liquidity, loan-to-deposit ratio, interest expenses, financial stability, resource diversification.

Аннотация. В данной статье раскрываются **экономическая сущность** эффективности депозитной базы коммерческих банков, а также её роль и значение в обеспечении устойчивости банковской деятельности. Структура, стабильность, стоимость, сроки и уровень диверсификации депозитной базы исследованы в качестве основных факторов, влияющих на ресурсный потенциал банка. Кроме того, проанализированы вопросы расширения кредитных возможностей банка, укрепления его ликвидности, оптимизации процентных расходов и улучшения финансовых результатов за счёт привлечения и эффективного использования депозитных средств.

Ключевые слова: коммерческий банк, депозитная база, банковские ресурсы, депозитная политика, депозитные операции, эффективность ресурсов, стабильные депозиты, ликвидность банка, соотношение кредитов и депозитов, процентные расходы, финансовая устойчивость, диверсификация ресурсов.

KIRISH

Tijorat banklari faoliyatining barqarorligi va samaradorligi, avvalo, ularning yetarli, ishonchli hamda maqbul qiymatga ega moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligiga bog'liq. Bank resurslari tarkibida mijozlardan jalb qilinadigan depozit mablag'lari muhim o'rin egallaydi. Depozitlar tijorat banklarining kreditlash, investitsiya operatsiyalarini amalga oshirish, hisob-kitob xizmatlarini ko'rsatish va boshqa daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarini moliyalashtirishning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Shu sababli bank depozit bazasining hajmi bilan bir qatorda, uning tarkibi, barqarorligi, qiymati va muddatlari mutanosibligini ta'minlash dolzarb ilmiy-amaliy masala sifatida namoyon bo'ladi.

Depozit bazasi tijorat bankining jismoniy va yuridik shaxslar, davlat tashkilotlari hamda boshqa mijozlardan jalb qilgan talab qilib olinguncha saqlanadigan, jamg'arma va muddatli depozitlari yig'indisini ifodalaydi. Mazkur mablag'lar bankning jalb qilingan resurslari tarkibiga kirib, aktiv operatsiyalar hajmi va yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Depozit bazasi qanchalik barqaror va diversifikatsiyalashgan bo'lsa, bankning



uzoq muddatli kreditlar ajratish, likvidlilikni saqlash va bozor xatarlariga bardosh berish imkoniyatlari shunchalik yuqori bo'ladi.

Depozit bazasining samaradorligi faqat jalb qilingan mablag'lar miqdori bilan belgilanmaydi. Samaradorlik depozit resurslarini minimal xarajatlar evaziga jalb qilish, ularni daromad keltiruvchi aktivlarga oqilona joylashtirish, depozitlarning muddatlari bilan aktiv operatsiyalar muddatlari o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash hamda mijozlar mablag'larining bankdan keskin chiqib ketish xavfini kamaytirishni ham qamrab oladi. Shu nuqtayi nazardan, depozit bazasi samaradorligi bankning resurslarni shakllantirish va ulardan foydalanish jarayonida erishilgan iqtisodiy natijalarning amalga oshirilgan xarajatlarga nisbati sifatida tavsiflanadi.

Bank depozit bazasining yetarli darajada barqaror bo'lmashligi likvidlilik muammolarini yuzaga keltirishi, kreditlash hajmini cheklashi, qimmat banklararo resurslarga bo'lgan ehtiyojni oshirishi va bankning foiz xarajatlari ko'payishiga olib kelishi mumkin. Aksincha, uzoq muddatli va barqaror depozitlar ulushining ortishi bankning resurs salohiyatini mustahkamlaydi, aktiv va passivlar muddatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytiradi hamda bankning moliyaviy barqarorligini oshiradi. Bunda depozitlarning bir nechta yirik mijozlarda to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik, mijozlar tarkibini kengaytirish va depozit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega.

Zamonaviy bank xizmatlari bozorida depozit resurslari uchun raqobatning kuchayishi tijorat banklaridan samarali depozit siyosatini ishlab chiqishni talab etmoqda. Aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga jalb qilishda foiz stavkalari bilan bir qatorda, bankning ishonchliligi, xizmatlar sifati, mobil va internet-banking imkoniyatlari, depozitlarni boshqarish qulayligi hamda mijozlar mablag'larining himoyalanganligi muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Shu bois banklar mijozlarning ehtiyojlariga mos, daromadlilik va likvidlilik jihatidan jozibador depozit mahsulotlarini taklif etishi zarur.

Tijorat banklari depozit bazasi samaradorligini baholashda depozitlarning jami majburiyatlar va aktivlardagi ulushi, muddatli depozitlar salmog'i, depozitlarning o'rtacha qiymati, kreditlarning depozitlarga nisbati, jalb qilingan mablag'larning aylanuvchanligi, foiz xarajatlari darajasi hamda depozitlardan foydalanish rentabelligi kabi ko'rsatkichlar muhim hisoblanadi. Mazkur ko'rsatkichlarning tizimli tahlili bank resurs siyosatidagi kamchiliklarni aniqlash, depozit portfelining maqbul tarkibini shakllantirish va moliyaviy natijalarni yaxshilash imkonini beradi.

Mazkur mavzuni tadqiq etishdan asosiy maqsad tijorat banklarida depozit bazasi samaradorligining iqtisodiy mohiyatini ochib berish, uni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlarni tizimlashtirish hamda depozit resurslarini shakllantirish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tijorat banklarida depozit bazasi samaradorligini tadqiq etishda depozitlarning hajmi bilan bir qatorda, ularning barqarorligi, qiymati, tarkibi, muddati va bank faoliyati natijalariga ta'sirini o'rganish muhim hisoblanadi. So'nggi yillarda xorijiy olimlar tomonidan depozitlarni jalb qilish omillari, depozit resurslarining bank qiymatiga ta'siri, institutsional muhit, makroiqtisodiy barqarorlik hamda depozitlar tarkibidan kelib chiqadigan risklar keng tadqiq etilgan.

Y.A. Ünvan va I.N. Yakubu 2020-yilda Gana tijorat banklari misolida bankka xos omillarning depozitlar hajmiga ta'sirini tadqiq etgan. Olimlar tadqiqot natijalariga ko'ra, bankning rentabelligi, hajmi va likvidlilik darajasi depozitlar hajmini belgilovchi muhim omillar hisoblanadi. Inflyatsiya bilan ifodalangan makroiqtisodiy beqarorlik esa depozitlar hajmiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, kapital yetarliligi darajasining oshishi barcha holatlarda ham depozitlar hajmining ko'payishiga olib kelmasligi aniqlangan. Olimlar banklarning depozit mablag'larini jalb qilish imkoniyatlarini kengaytirishda bank hajmi, moliyaviy natijalari va likvidliligini yaxshilashga qaratilgan siyosat muhimligini ta'kidlaydi. Mazkur tadqiqotda depozit bazasining shakllanishiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar to'g'ri tizimlashtirilgan. Biroq depozit bazasi samaradorligini faqat depozitlar hajmining o'sishi orqali baholash yetarli emas. Depozitlarning o'rtacha qiymati, muddatli depozitlar ulushi, mijozlar bo'yicha konsentratsiyasi va jalb qilingan mablag'larning daromad keltiruvchi aktivlarga joylashtirilish darajasi ham hisobga olinishi lozim.

P. Bolton, Y. Li, N. Wang va J. Yang 2020-yilda e'lon qilingan va 2021-yilda qayta ko'rib chiqilgan tadqiqotida depozitlarning bank iqtisodiy qiymatini shakllantirishdagi rolini dinamik nazariya asosida yoritgan. Olimlar depozitlarni bank uchun nisbatan arzon moliyalashtirish va leveraj manbai sifatida baholaydi. Biroq depozitlarning keskin ko'payishi barcha vaziyatlarda ham bank qiymatining oshishiga olib kelmaydi. Chunki bank depozit mablag'larining kirib kelishi va chiqib ketishini to'liq nazorat qila olmaydi. Agar bankda ehtimoliy depozit oqimlarini qoplash uchun yetarli kapital mavjud bo'lmasa, depozitlarning haddan tashqari ko'payishi qo'shimcha likvidlilik va moliyaviy risklarni yuzaga keltirishi mumkin. Mazkur yondashuv depozit bazasi samaradorligining



iqtisodiy mohiyatini chuqurroq ochib beradi. Tijorat bankining maqsadi depozitlarni imkon qadar ko'p jalb qilish emas, balki bank kapitali, likvid aktivlari va kreditlash imkoniyatlariga mos bo'lgan optimal depozit bazasini shakllantirishdan iborat bo'lishi kerak. Demak, depozit bazasi samaradorligi jalb qilingan mablag'larning hajmi emas, balki ularning bank qiymati va moliyaviy natijalariga qo'shgan hissasi bilan baholanishi zarur.

D.L.M.N.K. Ariyasena 2021-yilda Shri-Lanka tijorat banklari misolida depozitlar o'sishining qisqa va uzoq muddatli omillarini tadqiq qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bank tizimining barqarorligi, banklar faoliyatining unumdorligi, kapital taklifi, iqtisodiy o'sish va inflyatsiya depozitlarning uzoq muddatli o'sishiga ta'sir ko'rsatadi. Qisqa muddatda esa bank filiallari tarmog'ining kengayishi va iqtisodiyotdagi pul massasining ko'payishi depozitlarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olim depozitlar o'sishini bankka xos ko'rsatkichlar va makroiqtisodiy omillar o'zaro ta'sirining natijasi sifatida baholaydi.

Thi Anh Nhu Nguyen 2022-yilda Yevropaning o'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarida institutsional sifatning bank depozitlari o'sishiga ta'sirini o'rgangan. Tadqiqotda qonun ustuvorligi bank depozitlari o'sishi bilan ijobiy bog'liqligi aniqlangan. Shuningdek, iqtisodiyotdagi keng pul massasi va real iqtisodiy o'sish depozitlarning ko'payishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Biroq bank faoliyati samaradorligi va filiallar tarmog'ining kengayishi ayrim o'tish iqtisodiyotlarida depozitlar o'sishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Olimning fikricha, institutsional muhitning yaxshilanishi bank moliyalashtirish manbalarining barqarorligini mustahkamlaydi.

Pietro Grandi va Marianne Guille 2023-yilda bank depozitlarining tarkibi, foiz stavkalarining qat'iyligi va kreditlash faoliyati o'rtasidagi bog'liqlikni Fransiya banklari misolida tadqiq etgan. Olimlar depozitlarga yuqori darajada tayanadigan banklar manfiy foiz stavkalari sharoitida boshqa banklarga nisbatan kreditlash hajmini ko'proq oshirganini aniqlagan. Mazkur ta'sir, ayniqsa, foiz stavkasi pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlarga sekin moslashadigan qisqa muddatli va aholi depozitlari ulushi yuqori bo'lgan banklarda kuchli namoyon bo'lgan. Bunday banklar daromadlilikni saqlab qolish maqsadida kichik korxonalar, korporativ qarzarlar va nisbatan yuqori riskli aktivlarga ko'proq mablag' yo'naltirgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks foydalanildi. Xususan, tijorat banklarida depozit bazasi samaradorligining iqtisodiy mohiyatini yoritishda tahlil va sintez, qiyosiy taqqoslash, tizimli yondashuv, ilmiy abstraksiyalash, induktiv va deduktiv tahlil hamda mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning nazariy asosini tijorat banklari depozit bazasini shakllantirish va boshqarishga oid mahalliy hamda xorijiy olimlarning ilmiy ishlari, xalqaro ilmiy jurnallarda e'lon qilingan maqolalar va iqtisodiy adabiyotlar tashkil etdi. Adabiyotlarni o'rganish jarayonida depozit bazasi samaradorligini belgilovchi asosiy omillar, ularning bank faoliyati barqarorligiga ta'siri hamda depozit siyosatini takomillashtirish bo'yicha mavjud ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi.

Qiyosiy taqqoslash usuli yordamida turli mualliflarning depozit bazasi samaradorligiga oid ilmiy qarashlari o'zaro solishtirildi, ularning umumiy va farqli jihatlari aniqlandi hamda mazkur yondashuvlar asosida mualliflik qarashlari shakllantirildi. Tizimli yondashuv orqali depozit bazasi samaradorligi bankning likvidiligi, daromadliliigi, resurs salohiyati va moliyaviy barqarorligi bilan uzviy bog'liq bo'lgan yagona tizim sifatida baholandi.

Shuningdek, mantiqiy umumlashtirish usuli asosida depozit bazasi samaradorligini baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlar tizimlashtirildi hamda ularni takomillashtirish yuzasidan ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalarini shakllantirishda iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanilib, depozit resurslarining tarkibi, barqarorligi, qiymati, muddatlari va diversifikatsiya darajasining bank faoliyati samaradorligiga ta'siri ilmiy jihatdan asoslab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bizning fikrimizcha, tijorat banki depozit bazasining samaradorligi — bank tomonidan maqbul xarajatlar asosida jalb qilingan, yetarli darajada barqaror va diversifikatsiyalashgan depozit mablag'laridan likvidlilik, daromadlilik hamda risk o'rtasidagi muvozanatni ta'minlagan holda foydalanish natijasidir. Depozit bazasining samaradorligini baholashda depozitlarning o'sish sur'ati, o'rtacha qiymati, muddatli depozitlar ulushi, depozitlar konsentratsiyasi, kredit-depozit nisbati, foiz xarajatlari, depozitlarning barqarorlik koeffitsiyenti va ular hisobidan olingan daromad ko'rsatkichlaridan kompleks foydalanish maqsadga muvofiq.

Tijorat banklarida depozit bazasi samaradorligini oshirish, birinchi navbatda, mijozlarning moliyaviy imkoniyatlari, pul oqimlari, faoliyat sohasi va mablag'larni joylashtirish muddatiga mos depozit mahsulotlarini shakllantirishni talab etadi. Bank tomonidan barcha mijozlarga bir xil shartdagi depozit mahsulotlarini taklif etish depozit resurslarining yetarli darajada o'smasligi, mablag'larning qisqa muddatlarda bankdan chiqib ketishi



hamda depozitlar bo'yicha foiz xarajatlarining ortishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli mijozlar segmentiga yo'naltirilgan depozit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish depozit bazasining hajmi va barqarorligini ta'minlovchi muhim yo'nalish hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faoliyati davomida ish haqi, soliq, yetkazib beruvchilar bilan hisob-kitoblar, investitsiya xarajatlari va boshqa operatsiyalar uchun doimiy pul oqimlari shakllanadi. Ushbu mablag'larning ma'lum qismi talab qilib olinguncha, jamg'arma va muddatli depozit hisobvaraqlarida saqlanishi bank uchun takrorlanuvchi resurs bazasini vujudga keltiradi. Ayniqsa, yuridik shaxslarning tarmoq, hudud, faoliyat turi va biznes ko'lami bo'yicha diversifikatsiya qilinishi bir yoki bir nechta yirik mijozga qaramlikni kamaytiradi hamda depozitlarning keskin chiqib ketish xavfini cheklaydi.

Yuridik shaxslar depozitlarining jami depozitlar tarkibidagi ulushini kamida **60 foiz** darajasida saqlash taklifi bankning korporativ mijozlar bilan hisob-kitob, inkassatsiya, ekvayring, ish haqi loyihalari, valyuta operatsiyalari va kredit xizmatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik bilan asoslanadi. Korporativ mijoz bankning bir nechta xizmatidan bir vaqtda foydalanganda uning mablag'larini boshqa bankka o'tkazish bilan bog'liq tranzaksiya xarajatlari oshadi. Natijada bunday depozitlarning bankda saqlanish muddati uzayib, resurslarning qayta joylashtirilish darajasi ortadi.

Mazkur ko'rsatkich quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\text{YuShD ulushi} = \text{Yuridik shaxslar depozitlari} / \text{Jami depozitlar} \times 100.$$

Ushbu ulushning 60 foizdan kam bo'lmasligi bank depozit bazasining asosiy qismini real sektor korxonalari va tadbirkorlik subyektlarining mablag'lari hisobidan shakllantirish imkonini beradi. Bu esa kreditlash operatsiyalarini moliyalashtirish, depozit resurslarining aylanuvchanligini oshirish va bankning foiz marjasini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, 60 foizlik daraja depozit bazasining qolgan qismini jismoniy shaxslar, davlat tashkilotlari va boshqa mijozlar mablag'lari hisobidan shakllantirish imkoniyatini saqlab qoladi. Natijada depozit bazasida bir tomonlama tarkibiy qaramlik yuzaga kelishining oldi olinadi.

Taklifni amaliyotga joriy etishda yuridik shaxslarni yirik korxonalar, kichik biznes subyektlari, eksportyorlar, xizmat ko'rsatish korxonalari, budjet tashkilotlari va mavsumiy faoliyat yurituvchi subyektlar kabi segmentlarga ajratish maqsadga muvofiq. Har bir segment uchun quyidagi depozit mahsulotlari ishlab chiqilishi mumkin:

- yirik korxonalar uchun individual foiz stavkali va qisman yechib olish imkoniyatiga ega muddatli depozitlar;
- kichik biznes subyektlari uchun minimal qoldiq saqlangan holda mablag'larni erkin boshqarish imkonini beruvchi depozitlar;
- eksportyor korxonalar uchun milliy va xorijiy valyutadagi ko'p valyutali depozitlar;
- mavsumiy faoliyat yurituvchi korxonalar uchun moslashuvchan muddatli depozitlar;
- korporativ guruhlar uchun markazlashtirilgan mablag'larni boshqarish va depozitga avtomatik yo'naltirish xizmatlari;
- doimiy hisob-kitob aylanmasiga ega mijozlar uchun depozit va hisob-kitob xizmatlarini birlashtiruvchi kompleks paketlar.

Yuridik shaxslar depozitlarining 60 foizlik ulushi depozitlar sifatini nazorat qiluvchi qo'shimcha ko'rsatkichlar bilan birgalikda baholanishi zarur. Jumladan, yirik omonatchilar konsentratsiyasi, depozitlarning o'rtacha saqlanish muddati, muddatli depozitlarning ulushi, depozitlarni uzaytirish koeffitsiyenti, jalb qilingan resurslarning o'rtacha qiymati hamda depozitlarning kreditlarga nisbati muntazam nazorat qilinishi kerak. Aks holda, depozitlarning katta qismi bir nechta yirik korxona mablag'laridan shakllansa, **60 foizlik** ko'rsatkichga erishilganiga qaramay, depozit bazasining barqarorligi pasayishi mumkin.

Shuning uchun taklifning samaradorligini baholashda quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

- bir yirik mijozning depozitlari jami yuridik shaxslar depozitlarining haddan tashqari katta qismini tashkil etmasligi;
- yuridik shaxslar depozitlari iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar bo'yicha diversifikatsiya qilinishi;
- muddatli va barqaror qoldiqqa ega depozitlarning ulushi oshirilishi;
- depozitlarning o'rtacha qiymati bank aktivlarining daromadlilik darajasidan kelib chiqib boshqarilishi;
- mijozlarning bankdagi depozitlarini qayta joylashtirish koeffitsiyenti oshirib borilishi.

Masalan, bankning jami depozitlari 10 trillion so'mni tashkil etsa, yuridik shaxslar depozitlarining kamida 6 trillion so'm miqdorida shakllantirilishi maqsadli ko'rsatkich hisoblanadi. Agar amaldagi yuridik shaxslar depozitlari 5,2 trillion so'm yoki jami depozitlarning 52 foizini tashkil etsa, 60 foizlik darajaga erishish uchun qo'shimcha 0,8 trillion so'mlik korporativ depozit resurslarini jalb qilish talab etiladi. Ushbu qo'shimcha mablag'larni faqat foiz stavkasini oshirish orqali emas, balki mijozlarning pul oqimlariga mos depozit mahsulotlari, masofaviy boshqaruv, avtomatik depozitlash, kompleks xizmat paketlari va individual tariflar orqali jalb qilish bankning foiz xarajatlari oshib ketishining oldini oladi.


Taklifning iqtisodiy samaradorligi quyidagi natijalarda namoyon bo'ladi:

- depozit bazasining hajmi va barqaror qoldig'i oshadi;
- depozit resurslarining qayta joylashtirish darajasi ko'tariladi;



- kreditlash operatsiyalarini moliyalashtirish imkoniyati kengayadi;
- depozitlarning o'rtacha qiymatini boshqarish imkoniyati yaxshilanadi;
- korporativ mijozlarning bank xizmatlaridan kompleks foydalanishi ortadi;
- foizli va foizsiz daromadlar hajmi ko'payadi;
- depozitlar bo'yicha konsentratsiya va likvidlik xavflarini boshqarish imkoniyati oshadi.

Shunday qilib, mijozlar segmentiga yo'naltirilgan depozit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish orqali yuridik shaxslar depozitlarining jami depozitlar tarkibidagi ulushini kamida 60 foiz darajasida saqlash tijorat bankining depozit bazasini kengaytirish, resurslarning barqarorligini ta'minlash va korporativ mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlarni rivojlantirish imkonini beradi. Biroq mazkur ko'rsatkich depozitlar konsentratsiyasi, muddati, qiymati va barqaror qoldig'i bilan birgalikda boshqarilgandagina bank faoliyati samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi(1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklarida depozit bazasi samaradorligining iqtisodiy mohiyati bo'yicha tasniflanishi

1-rasmda tijorat banklarida depozit bazasi samaradorligining iqtisodiy mohiyati turli mezonlar asosida tasniflangan. Xususan, mazmuniy mohiyatiga ko'ra depozit bazasi samaradorligi iqtisodiy, moliyaviy, operatsion va ijtimoiy samaradorlik ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Bu holat depozit bazasi nafaqat bankning moliyaviy natijalariga, balki uning operatsion barqarorligi, xizmat ko'rsatish sifati hamda jamiytdagi ishonch darajasiga ham ta'sir ko'rsatishini anglatadi. Baholash yo'nalishiga ko'ra esa samaradorlikni absolyut, nisbiy, dinamik va integral ko'rsatkichlar orqali aniqlash mumkin bo'lib, bu depozit bazasining holatini har tomonlama baholash imkonini beradi.

Shuningdek, depozit bazasi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ichki va tashqi, bevosita va bilvosita omillarga ajratilgan bo'lib, bu bank faoliyatida depozit siyosatini shakllantirishda kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Vujudga kelish manbasiga ko'ra depozit bazasi jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar hamda moliyaviy institutlar depozitlari hisobidan shakllanishi qayd etilgan. Natijadorlik darajasiga ko'ra esa depozit bazasi samaradorligi yuqori, o'rta, past va samarasiz holatlarda baholanishi mumkin. Umuman olganda, mazkur tasnif tijorat banklarida depozit bazasi samaradorligini chuqur tahlil qilish, uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda barqaror resurs bazasini shakllantirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari tijorat banklari depozit bazasi bank faoliyatining moliyaviy barqarorligi, likvidligi va daromadligini ta'minlovchi asosiy resurs manbalaridan biri ekanligini ko'rsatdi. Depozit mablag'lari banklarning kreditlash, investitsiya va boshqa daromad keltiruvchi aktiv operatsiyalarini moliyalashtirish imkoniyatini belgilaydi. Shu sababli depozit bazasining samaradorligini faqat jalb qilingan mablag'larning umumiy hajmi bilan emas, balki ularning qiymati, muddati, barqarorligi, tarkibi va diversifikatsiya darajasi bilan kompleks baholash zarur.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, depozit bazasi yetarlicha barqaror bo'lmagan sharoitda bank likvidlik muammolariga duch kelishi, kreditlash hajmi qisqarishi, qimmat banklararo resurslarga ehtiyoj ortishi va foiz xarajatlari ko'payishi mumkin. Aksincha, uzoq muddatli va barqaror depozitlar ulushining ortishi aktivlar hamda majburiyatlar muddatlari o'rtasidagi nomuvofiqlikni kamaytirib, bankning bozor xatarlariga bardoshlilikini oshiradi. Bunda depozitlarning ayrim yirik mijozlar qo'lida haddan tashqari to'planib qolishiga yo'l qo'ymaslik, omonatchilar tarkibini kengaytirish va depozit mahsulotlarini diversifikatsiya qilish muhim hisoblanadi.



O'rganilgan ilmiy qarashlar depozit bazasining shakllanishi bankning rentabelligi, likvidliligi, hajmi, kapitali, iqtisodiy o'sish, inflyatsiya va institutsional muhit kabi ichki hamda tashqi omillarga bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, depozitlarning keskin ko'payishi har doim ham bank faoliyati samaradorligining oshishini anglatmaydi. Jalb qilingan resurslar bank kapitali, likvid aktivlari va kreditlash salohiyatiga mos ravishda boshqarilmasa, qo'shimcha likvidlilik, foiz va kredit risklari yuzaga kelishi mumkin. Demak, tijorat bankining asosiy vazifasi depozitlarni imkon qadar ko'p jalb qilish emas, balki maqbul qiymatga ega, barqaror va optimal tarkibdagi depozit bazasini shakllantirishdan iborat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ünvan Y.A., Yakubu I.N. *Do Bank-Specific Factors Drive Bank Deposits in Ghana?* Journal of Computational and Applied Mathematics, 2020, Vol. 376, Article 112827.
2. Bolton P., Li Y., Wang N., Yang J. *Dynamic Banking and the Value of Deposits*. NBER Working Paper No. 28298, 2020, revised 2021.
3. Ariyasena D.L.M.N.K. *Short and Long-Term Determinants of Commercial Bank Deposit Growth in an Emerging South Asian Economy: Sri Lanka*. South Asian Journal of Finance, 2021, Vol. 1, No. 2, pp. 148–159.
4. Nguyen T.A.N. *The Role of Institutional Quality in Bank Deposit Growth in European Transition Economies*. Finance Research Letters, 2022, Vol. 47, Article 102630.
5. Grandi P., Guille M. *Banks, Deposit Rigidity and Negative Rates*. Journal of International Money and Finance, 2023, Vol. 133, Article 102810.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>